



Toshkent shahridagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.


2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 91 436 ta korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 16,0 foizga o‘sgan. Natijada, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 12 656 ta (14,5 %) ga o‘sgan hamda ularning umumiy soni 87 316 tani tashkil etgan.




Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jamiga nisbatan 25,7 % savdo, 17,5 % sanoat, 8,0 % qurilish, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 3,8 % axborot va aloqa, 1,8 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,0 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari hamda 30,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (11 088 ta), Chilonzor (11 735 ta), Mirzo Ulug'bek (10 123 ta), Olmazor (9 351 ta), Shayxontohur (9 009 ta), Uchtepa (8 469 ta), Yakkasaroy (7 999 ta) va Mirobod (7 953 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (7 047 ta), Sirg'ali (5 516 ta) hamda Bektemir (2 146 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 87 316 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 12 656 ta (14,5 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (11 283 ta), Chilonzor (11 256 ta), Mirzo Ulug'bek (9 816 ta), Olmazor (9 133 ta), Shayxontohur (8 486 ta), Uchtepa (8 117 ta), Yakkasaroy (7 791 ta) va Mirobod tumanlari (7 513 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (6 528 ta), Sirg'ali (5 319 ta) hamda Bektemir (2 074 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-mart oylarida 4 619 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 876 birlikka kamdir.

2016–2020-yillarning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Chilonzor (590 ta), Uchtepa (579 ta), Yunusobod (552 ta), Mirzo Ulug'bek (487 ta), Shayxontohur (480 ta), Olmazor (433 ta) va Yashnobod (355 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yakkasaroy (348 ta), Mirobod (337 ta), Sirg'ali (324 ta), hamda Bektemir (134 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarning tashkil etilish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p savdo (1 977 ta), sanoat (558 ta), qurilish (407 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (340 ta) va axborot va aloqa (192 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kamida esa tashish va saqlash (145 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (73 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari (44 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 81 970 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 64 234 ta, xususiy korxonalar – 13 260 ta, oilaviy korxonalar – 3 130 ta, unitar korxonalar – 609 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 230 ta va boshqalar 507 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarining soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 64 234 tani tashkil etib, ulardan 61 543 tasi yoki 95,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 10 479 taga yoki 17,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida 3 604 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 565 birlikka kamdir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda

	01.04.2020 yil		2020-yil yanvar-mart oylari
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	64 234	61 543	3 604
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	693	652	33
Sanoat	12 048	11 585	448
Qurilish	6 483	6 230	381
Savdo	17 852	17 123	1 484
Tashish va saqlash	3 158	3 052	131
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 748	4 478	246
Axborot va aloqa	2 819	2 681	164
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 130	1 102	64
Boshqa turlari	15 303	14 640	653

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo – 27,8 %, sanoat – 18,8%, qurilish – 10,1% hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,3 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamklari esa tashish va saqlash faoliyat turlarida – 4,9 %, axborot va aloqa – 4,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,8 % hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida – 1,1% ga to'g'ri kelgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining tumanlar bo'yicha taqsimoti, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



■ mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ■ xususiy korxonalar
■ oilaviy korxonalar ■ boshqalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 77 445 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 15,6 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
Toshkent shahar	77 445	7 393	70 052
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	7 455	424	7 031
Bektemir	1 908	254	1 654
Yunusobod	9 916	860	9 056
Mirzo Ulug'bek	8 546	862	7 684
Mirobod	6 377	780	5 597
Shayhontohur	7 332	669	6 663
Olmazor	8 352	726	7 626
Sirg'ali	4 827	398	4 429
Yakkasaroy	7 031	841	6 190
Yashnobod	5 746	682	5 064
Chilonzor	9 955	897	9 058

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy sonida tumanlar ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Eng katta ulush

Eng kichik ulush



Chilonzor tumani
12,9 %



Yakkasaroy tumani
9,1 %



Yunusobod tumani
12,8 %



Mirobod tumani
8,2 %



Mirzo Ulug'bek tumani
11,0 %



Yashnobod tumani
7,4 %



Olmazor tumani
10,8 %



Sirg'ali tumani
6,2 %



Uchtepa tumani
9,6 %



Bektemir tumani
2,5 %




Shayhontohur tumani
9,5 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9 955 tasi (12,9 %) Chilonzor, 9 916 tasi (12,8 %) Yunusobod, 8 546 tasi (11,0 %) Mirzo Ulug'bek hamda 8 352 tasi (10,8 %) Olmazor tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 77 445 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 22 323 ta (28,8 %) – savdo, 15 176 ta (19,6 %) – sanoat, 7 010 ta (9,1 %) – qurilish, 6 169 ta (8,0 %) – yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 3 437 ta (4,4 %) – tashish va saqlash bo‘yicha xizmatlar sohasi, 3 270 ta (4,2 %) – axborot va aloqa sohasi, 1 346 ta (1,7 %) – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 824 ta (1,1 %) – qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari, shuningdek 17 890 tasi (23,1 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-mart oylarida 4 460 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 844 taga birlikka kamdir. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari Chilonzor (572 ta), Uchtepa (567 ta), Yunusobod (533 ta), Mirzo Ulug‘bek (472 ta), Shayxontohur (455 ta), Olmazor (415 ta) va Yakkasaroy (338 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Eng kam Yashnobod (342 ta), Mirobod (320 ta), Sirg‘ali (312 ta) hamda Bektemir (134 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa ularning eng ko'p soni savdoda – 1 973 ta, sanoatda – 558 ta, qurilishda – 407 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 337 ta, axborot va aloqada – 191 ta hamda tashish va saqlashda – 144 ta tashkil etilgan. Eng kamisi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 72 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida – 44 ta tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 3 130 tani tashkil etib, ulardan 2 942 tasi yoki 93,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 20,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot (birlikda)

	01.04.2020 y.		2020 yil yanvar-mart oylari
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Toshkent shahri	3 130	2 942	184
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	469	445	11
Bektemir	93	90	12
Yunusobod	369	339	24
Mirzo Ulug'bek	227	216	9
Mirobod	173	154	5
Shayxontohur	438	402	35
Olmazor	440	427	27
Sirg'ali	187	179	10
Yakkasaroy	162	159	16
Yashnobod	275	248	22
Chilonzor	297	283	13

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 40,5 % ya'ni 1 192 tasi sanoat, 19,8 % – 583 tasi savdo, 18,7 % – 551 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,7 % – 79 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,6 % – 47 tasi axborot va aloqa, 1,4 % – 42 tasi qurilish, 1,1 % – 31 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % ya'ni 28 tasi tashish va saqlash hamda 13,2 % – 389 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, % da



Agarda 2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko‘rsak, eng ko‘pi – sanoat hamda savdoda, eng kami esa – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Toshkent shahri	184	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	11	6
Bektemir	12	6,5
Yunusobod	24	13
Mirzo Ulug‘bek	9	4,9
Mirobod	5	2,7
Shayxontohur	35	19
Olmazor	27	14,7
Sirg‘ali	10	5,4
Yakkasaroy	16	8,7
Yashnobod	22	12
Chilonzor	13	7,1

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Shayxontohur (35 ta), Olmazor (27 ta), Yunusobod (24 ta), Yashnobod (22 ta) va Yakkasaroy (16 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha, Chilonzor (13 ta), Bektemir (12 ta), Uchtepa (11 ta), Sirg‘ali (10 ta), Mirzo Ulug‘bek (9 ta), hamda Mirobod (5 ta) tumanlarida ularning tashkil etish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlaganda ularning 31,0 % – 57 tasi sanoat, 29,3 % – 54 tasi savdo, 22,3 % – 41 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 3,8 % – 7 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,1 % – 2 tasi axborot va aloqa, 1,1 % – 2 tasi tashish va saqlash, 1,1 % – 2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,5 % – 1 tasi qurilish hamda 9,8 % – 18 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6 684 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 502 taga yoki 22,7 % ga o'sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1 154 ta (jamidagi ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 035 ta (15,5 %), Yunusobod – 896 ta (13,4 %), Mirzo Ulug'bek – 820 ta (12,2 %), Chilonzor – 746 ta (11,2 %), Yashnobod – 529 ta (8,0 %) va Shayxontohur – 481 ta (7,2 %) tumanlarida tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor – 359 ta (5,4 %), Sirg'ali – 278 ta (4,1%), Uchtepa – 229 ta (3,4 %) hamda Bektemir – 157 ta (2,4 %) tumanlarida tashkil etgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining 2 810 tasi qo'shma, 3 874 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da



Xorijiy kapital ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	6 684	2 810	3 874
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	229	85	144
Bektemir	157	86	71
Yunusobod	896	391	505
Mirzo Ulug'bek	820	372	448
Mirobod	1 154	361	793
Shayxontohur	481	238	243
Olmazor	359	190	169
Sirg'ali	278	146	132
Yakkasaroy	1 035	393	642
Yashnobod	529	252	277
Chilonzor	746	296	450

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 407 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 153 taga kam.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod (88 ta), Mirzo Ulug'bek (67 ta), Yakkasaroy (56 ta), Yunusobod (48 ta), Chilonzor (37 ta) va Shayxontohur (28 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Yashnobod (24 ta), Olmazor (22 ta), Sirg'ali (19 ta), Uchtepa (13 ta) va Bektemir (5 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokida 84 ta, Turkiya Respublikasi – 64 ta, Qozog'iston Respublikasi – 55 ta, Xitoy Xalq Respublikasi– 41 ta, Koreya Respublikasi – 32 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 131 ta korxonalar yangi tashkil etilgan. Shuningdek, 2020-yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, AQSh, Germaniya Federativ Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Hindiston Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 160 tasi savdo, 62 tasi sanoat, 47 tasi qurilish va 138 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



MDH davlatlari ishtirokida yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo‘shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	84	31	53
Qozog‘iston Respublikasi	55	20	35
Ozarbayjon Respublikasi	14	4	10
Tojikiston Respublikasi	5	1	4
Belorussiya Respublikasi	5	1	4
Qirg‘iz Respublikasi	3	2	1
Armaniston Respublikasi	1	1	-

MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi – 20,6 %, Qozog‘iston Respublikasi – 13,5 % va Ozarbayjon Respublikasi – 3,4 % ga to‘g‘ri kelmoqda.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Ye.V.Yegorova
tel.: 71 230-88-31